

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA DIREKTOR O'RINBOSARINING BOSHQARUV VA YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

*Namangan viloyati Yangi Namangan tumani
78-son DMTT direktor o'rinbosari
Tulamirzayeva Zulfizar Asqarali qizi*

Annatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktor o'rinbosarining rahbarlik qobiliyati, kasbiy kompetensiyasi hamda boshqaruv faoliyatidagi muhim sifatleri yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida rahbar kadrlarning professional tayyorgarligi, liderlik salohiyati, kommunikativ madaniyati va innovatsion boshqaruv faoliyatining ahamiyati tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье освещаются лидерские способности, профессиональная компетентность и важные качества управленческой деятельности заместителя директора в организациях дошкольного образования. Также проанализировано значение профессиональной подготовки руководящих кадров, лидерского потенциала, коммуникативной культуры и инновационной управленческой деятельности в современной системе образования.


Калит so'zlar: maktabgacha ta'lim, direktor o'rinbosari, rahbarlik qobiliyati, kasbiy kompetensiya, liderlik, boshqaruv samaradorligi, pedagogik mahorat, innovatsion boshqaruv.

Ключевые слова: дошкольное образование, заместитель директора, лидерские способности, профессиональная компетентность, лидерство, эффективность управления, педагогическое мастерство, инновационное управление.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish hamda xalqaro ta'lim standartlariga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning eng muhim bosqichi sifatida e'tirof etilib, bolaning shaxs sifatida shakllanishi aynan shu davrdan boshlanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) faoliyatini samarali boshqarish va pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. MTTda direktor o'rinbosari ta'lim-tarbiya jarayonini muvofiqlashtiruvchi, pedagogik jamoani boshqaruvchi hamda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etuvchi asosiy rahbarlardan biri hisoblanadi. Shu sababli uning boshqaruv va yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaraladi. Chunki direktor o'rinbosari ta'lim-tarbiya

jarayonini tashkil etish, pedagoglar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratishda muhim boshqaruv subyektini hisoblanadi. Zamonaviy rahbar nafaqat boshqaruv bilimlariga, balki yuksak kasbiy kompetensiya, liderlik qobiliyati, kommunikativ madaniyat va innovatsion fikrlash ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi lozim. Shu sababli direktor o‘rinbosarining rahbarlik qobiliyati va kasbiy sifatlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik masalalaridan biridir.

Boshqaruv va yetakchilik kompetensiyalarining mazmuni-bu tashkilotni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil etish jarayonlarida samarali faoliyat yuritish qobiliyatidir. Yetakchilik kompetensiyasi esa jamoani ilhomlantirish, motivatsiya qilish, qaror qabul qilish va strategik yo‘nalishni belgilash bilan bog‘liq shaxsiy va kasbiy sifatlar majmuasidir.




Pedagogik mahoratidan kelib chiqib har bir rahbar o‘zining madaniyati, bolaga mehri-muhabbati orqali bolaga namuna bo‘layotganligini, uni hayotga tayyorlayotganligini unutmasligi lozim. Bolaning sog‘ligi va tarbiyasi bilan shug‘ullanar ekan, tarbiyachi va ota-ona ularning baxtli bolaligini yarata olishlari lozim.

Bolaning rivojlanish davri atrof dunyoni estetik jihatdan o‘rganish uchun tayyorlov bosqichi deb qarash muhimdir. Chunki, u butun sensor apparatning farqlovchi sezgirligini rivojlantirishdan va ob‘ektlar (buyum va hodisalar)ning eng yorqin xususiyat hamda sifatlarini idrok etishga hissiy javobdan boshlanadi. Bola maktabgacha ta‘lim davrida eng yorqin sifatlarga: ritmik harakatlar, musiqa sadolari, yorqin ranglar, ona va pedagogning chehrasi, uning jilmayishi, erkalovchi so‘zlari bilan dunyoni anglaydi. Ya‘niki, ularga dunyoni ona va pedagog tanitadi. Ayniqsa, hayotning birinchi yili davomida bolalarda sensor-hissiy ta‘sirchanlik faol takomillashadi. Hayotning ikkinchi yilida bolada asta-sekin idrokning takomillashuvi sodir bo‘la boshlaydi. Endilikda bola faqat voqelikning xususiyatlarini emas, balki

ayrim san'at asarlaridagi estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydi. Unda san'at asarlaridagi kontrast ifoda vositalari: quvnoq va g'amgin kuy, tez va ohista sur'at, musiqaning baland va past ovozi va shu kabilardan tegishli ta'sirlanish paydo bo'la boshlaydi. O'zi uchun yoqimli narsalarga kichkintoylarda hissiy javob yo yig'lashdan keyingi tinchishda yoki jo'shqin harakat ta'siriga javob sifatidagi jilmayishida, shodon kulgisida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarning har-xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish va maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish, rivojlanayotgan jamiyat talablaridan kelib chiqib ishni tashkil etish muhimdir. Bu borada bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Rahbarlik qobiliyati — bu jamoani boshqara olish, pedagoglarni umumiy maqsad sari yo'naltirish hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarining yig'indisidir. MTT direktor o'rinbosari quyidagi rahbarlik xususiyatlariga ega bo'lishi muhim:



XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi ham bevosita ijtimoiy-gumanitar fanlarni puxta biladigan, jahon maydonida o'z bilimi orqali raqobatlasha oladigan, o'zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatani hamda millatiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida shakllantirishga yo'naltirilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda - muhim o'rin tutadi.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

Rahbarlik va kasbiy sifatlarni rivojlantirish omillari

- Malaka oshirish kurslari va seminarlar;
- Zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini o'rganish;
- O'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil ta'lim;
- Pedagogik tajriba almashish;
- Raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish.

Yetakchilikning pedagogik jarayondagi roli-Yetakchilik kompetensiyasi MTTda jamoani birlashtirish, motivatsiya qilish va umumiy maqsad sari yo'naltirish orqali namoyon bo'ladi. Direktor o'rinbosari pedagoglar o'rtasida hamkorlik muhitini yaratishi, ularning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlashi va ijodiy tashabbuslarini rag'batlantirishi lozim. Shuningdek, yetakchilik jarayonida emotsional intellekt muhim o'rin tutadi. Rahbar o'rinbosari o'z hissiyotlarini boshqara olishi, boshqalarning hissiy holatini tushunishi va nizoli vaziyatlarda muvozanatni saqlashi zarur. Bu esa jamoada ishonch va barqarorlikni shakllantiradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha —Yo'l xaritasi tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida —Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish va navbatga qo'yish bo'yicha elektron dasturni joriy etish bo'yicha topshiriq berildi. Shuningdek, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlanganlik va internet tarmog'iga ulanganlik holati tanqidiy o'rganilib, ularni

bosqichma-bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlash va internet tarmog'iga ulash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning —Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish zarurki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktor o'rinbosarining boshqaruv va yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va strategik boshqaruv tamoyillarini joriy etish orqali MTT faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Shu bois rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlardan innovatsion fikrlash, liderlik, kommunikativ kompetensiya va professional mahoratni talab etmoqda. Shu bois direktor o'rinbosarlarining kasbiy kompetentligini muntazam rivojlantirish, ularni zamonaviy boshqaruv texnologiyalari asosida tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugun biz qurmoqchi bo'layotgan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ana shu talabga javob bera oladigan, bolalarimiz qonida yugurayotgan iste'dod va iqtidorni yuzaga chiqaradigan, erkin fikrlaydigan bo'lajak yurt egalarining o'zligini tanitadigan sevimli maskanga aylanmog'i shart. Zero, yurtboshimiz behudaga shuncha sharoit, imkoniyat va porloq kelajak eshigini ochib qo'yanlari yo'q. Faqat bu soha vakillaridan fidoiylik, mehnat, sabr va mehr-muhabbat talab qilinadi, xolos.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.— T.: "O'zbekiston", 2023.
2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1989 yil 20 noyabrdagi 44/25-qarori bilan qabul qilingan. Nyu-York, 1989 yil 20 noyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2008 yil 7 yanvardagi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida" gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi "Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning olidini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-3827-Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori.
6. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.